

## IJTIMOY PEDAGOGIKADA ME'YORLARDAN CHEKINISH

Soatova Rayxona Sadriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi.

[rayhonasoatova@gmail.com](mailto:rayhonasoatova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12600888>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogik me'yorlardan chetga chiqish holatlari, me'yordan og'gan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Me'yordan og'ish, o'smirlik, deviatsiya, jamiyat, tarbiya, maktab.

### DEVIATION FROM NORMS IN SOCIAL PEDAGOGY

**Abstract.** In this article, there are opinions about cases of deviation from social and pedagogical norms, forms of work with deviant teenagers.

**Key words:** Deviation from the norm, adolescence, deviance, society, education, school.

### ОТКЛОНЕНИЕ ОТ НОРМ В СОЦИАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

**Аннотация.** В данной статье приводятся мнения о случаях отклонения от социальных и педагогических норм, формах работы с девиантными подростками.

**Ключевые слова:** Отклонение от нормы, подростковый возраст, девиация, общество, образование, школа.

Turli fan fan sohalarida, jumladan, tibbiyot, sotsiologiya, psixologiyada "me'yor" tushunchasining o'z ko'rsatkich va mezonlari mavjud.

Me'yorga zid jihat – "og'ish", "chetga chiqish" deyiladi.

Aynan ijtimoiy pedagogika uchun "me'yor", "me'yordan og'ish" tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir.

Ular bola xulq-atvori va rivojlanishi jarayonini tavsiflash uchun qo'llaniladi. Og'ish ham salbiy, ham ijobiy tavsifga ega bo'lishi mumkin.


Misol uchun, bolaning rivojlanishida aqliy qoloqlik yoki bo'lmasa, o'ta qobiliyatlilik ham me'yordan chetga chiqish hisoblanadi.

Bola xulq-atvoridagi jinoyatchilik, giyohvandlik, aroqxo'rlik kabi salbiy og'ishlar shaxsning ijtimoiy shakllanishiga, jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan xatti-harakatlar ilmiy adabiyotlarda deviant deb nomlanadi.

Deviant xulq ko'plab olimlar, faylasuflar, psixologlar, pedagoglar orasida doimo katta qiziqish uyg'otgan.

Me'yordan og'ishganlikni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin:



**1. Jismaniy og'ishlik.** Bu, avvalo, insonning salomatligi bilan bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. Biror faoliyat yuritishda imkoniyati cheklangan, sog'ligi tufayli qobiliyatlaridan mahrum bo'lgan, defekti bo'lgan insonlar hamda nogironlar shular jumlasidandir. Boladagi jismoniy rivojlanishidagi og'ishlarga kasalliklar, eshitish, ko'rishdagi turli buzilishlar kiradi.

Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1980-yilda cheklangan imkoniyatlarning uch zvenosi shkalasining britanacha variantini qabul qildi:

- kasallik, xastalik - ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura elementlarini har qanday yo'qotish yoki ularning anomaliyasi;
- cheklangan imkoniyat - inson uchun norma hisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yo'qotish yoki cheklab qo'yish;
- nogironlik - yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib insonning biron-bir faoliyatini bajarishni cheklovchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat. Bunda "kamchilik" tushunchasi qo'llanadi. Insonlarda jismoniy, psixik, murakkab hamda og'ir kamchiliklar bo'lishi mumkin.<sup>1</sup>

**2. Psixik og'ishlik.** Me'yordan psixik og'ishlik, eng avval, bolaning psixik nuqsonlari, aqliy rivojlanishida namoyon bo'ladi. Boladagi aqliy qoloqlik nerv sistemasidagi tug'ma nuqsonlar, turli asoratli jarohatlar asosida paydo bo'ladi. Bolalardagi aqli zaiflik turli darajada bo'ladi, yengil aqliy zaiflikdan, chuqur-tentaklikkacha namoyon bo'ladi. Ruhiy og'ishlarga nutqdagi buzilishlar, emotsional faoliyatning buzilishi ham kiradi. Psixik og'ishlikning eng og'ir shakli deb autizm, suitsid (o'z joniga qasd qilish)larni misol qilib olishimiz mumkin.

**3. Pedagogik og'ishlik.** Pedagogik chekinish deganda, ham ob'yektiv, ham sub'yektiv sabablarga ko'ra ta'lim-tarbiya ola olmagan o'quvchilar tushuniladi.

<sup>1</sup> Ne'matova F.B. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022-y.

Bunga esa DTS talablarida belgilangandek umumiy o'rta ta'limga ega bo'la olmagan, kelajakdagi faoliyati uchun harakat qilmagan o'quvchilar kiradi.

Bunday holatlarning ko'plab (ob'yektiv va sub'yektiv) sabablar mavjud.

Masalan, o'quvchilar yoki talabalarning darsdan qochishi, materialni o'zlashtira olmaslik, o'qishdan bezishi, dangasalik, oiladagi nosog'lom muhit, bolalarning pul topish ilinjiga tushib ketishi, ekologik yoki ijtimoiy kataklizmalar natijasida bolalarning ota-onalaridan ayrilishi va h.k.

Bunday sabablarni ko'plab, minglab keltirish mumkin. Ko'pchilik holatda pedagogik chekinishga bolalarning qanday sharoitda yashashiga bog'liq: o'qish bilan qiziqadigan oiladami yoki aksincha o'qishni ikkinchi darajali deb hisoblaydigan oiladami va h.k.<sup>2</sup>

**4. Ijtimoiy og'ishlik.** Ijtimoiy me'yor bu ijtimoiy guruhlar, insonlar faoliyati, ular xulq-atvorining jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki o'rnatilgan tartib-qoidalar namunasi. Ijtimoiy me'yor ikkita guruhga ajratiladi:

- Universal, ya'ni jamiyatdagi barcha insonlarga xos.
- Xususiy, ya'ni jamiyatdagi ma'lum guruh yoki ma'lum kasb egalari xos me'yorlardir.

Ijtimoiy me'yorlarni, shuningdek huquqiy, ma'naviy, siyosiy, diniy va h.k.deb ham guruhlarga ajratish mumkin. Ijtimoiy me'yorlar va insonlarning ulardan o'qishi yoki chekinishi ular yashab turgan jamiyatning ajralmas faktori bo'lib hisoblanadi.<sup>3</sup> O'smirlar orasidagi ijtimoiy og'ish uning shu jamiyatda salbiy ta'sirlar jihatidan tarbiyalanishi, turli yomon ijtimoiy guruhlarga kirishi, ijtimoiy rolni egallab, ularni o'rganishi sifatida xarakterlanadi. Ijtimoiy me'yordn og'gan bolalarning xulq-atvori jamiyatning me'yorlariga zid tarzda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy pedagog faoliyati esa bu kabi yoshlar bilan profilaktika hamda rehabilitatsiya tadbirlarini olib borishga qaratilgandir.

Deviant xulq-atvorning sabablari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, nazariyalar mavjud. Bu haqida batafsil A.S.Makarenko shunday degan edi: "Bolalarning jinoyatchi bo'lib ketishiga nafaqat atrof-muhit, balki birinchi navbatda yomon ota-onalar va yomon o'qituvchilar ham aybdor. Jinoyatchilar nafaqat kam ta'minlangan va kambag'al oilalarda, balki badavlat oilalarda ham yetishib chiqadi. Badavlat oilalardan bo'lganlar ham jinoyat sodir etishadi. Barcha jinoyatchilar, xoh voyaga yetmaganlar, ham kattalar, hammasi oilada tarbiyalangan va o'sib, maktabda o'qigan. Bu shuni anglatadiki, gap nafaqat ob'yektiv og'ir turmush sharoitida, balki, birinchi navbatda, sub'yektiv sharoitlarda - bolalarni noto'g'ri tarbiyalashda. Yomon tashkil etilgan jamoadagi eng yaxshi o'g'il bolalar, yomon o'qituvchilar tomonidan noto'g'ri ta'limning salbiy ta'siri ostida juda tez yovvoyi hayvonlarga aylanadi.

Haqiqatan ham shunday. Eng zo'r bolalarni yig'ing, yoniga yomon o'qituvchilarni qo'ying, bir oy ichida ular koloniyani, bolalar uyini, maktabni va bu o'qituvchilarni o'zlarini ham vayron qiladilar".<sup>4</sup>

Deviant xulqdagi bolalar bilan ishlash tajribasi pedagoglar, ota-onalar orasida keng targ'ib qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shaxslararo munosabatga kirishishda, tarbiyaviy muhitni

<sup>2</sup> Ne'matova F.B. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022-y.

<sup>3</sup> Ne'matova F.B. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022-y.

<sup>4</sup> Muxtasar Shavkatjonova Zebo Saidaliyeva. (2024). Deviant xulqli bolalarda ijtimoiy-pedagogik muammolar bartaraf etish yo'llari. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 5 Issue 3, 500-504-betlar.

yaratishda, ijtimoiy munosabatlar tizimini yo'lga qo'yishda har bir tarbiyalanuvchini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ota-onalar, vasiylar, pedagog xodimlar qo'yilgan tarbiyaviy maqsadning mazmuni, vazifalariga ko'ra o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan qat'iy xulq-atvor me'yorlari, bilim, ko'nikma, malaka va har bir shaxsga xos fazilatlar, xususiyatlarni har bir tarbiyalanuvchi o'zlashtirishini ta'minlashi zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bola shaxsini tarbiyalash eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayon o'smir shaxsida deviant xulq-atvorni shakllanishida oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya usullari, ijtimoiy muhit eng muhim omillardan biri sanaladi. Shu sababdan ham, bugungi kun ota-onalari farzandining ta'lim-tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanishi, ularning kelajagiga bee'tibor bo'lmasligi lozim. Bu borada malakali ustoz-pedagoglarimiz ota-onalarga ko'maklashib barkamol avlodni voyaga yetazishga yordam beradi.

### REFERENCES

1. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.2009
2. Mavlonova R. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T. Istiqlol, 2009
3. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Sano-standard, 2022 y.
4. Ne'matova F.B. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2022-y.
5. Qasimbayeva Husnora Zafarbek qizi. (2023). ME'YORDAN OG'ISH VA DEVIATSIYA-IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. BELARUS, International scientific-online conference. 77-80-betlar.
6. Xoliqova Yulduz. (2024). Ijtimoiy pedagogikada meyordan og'ishgan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari metodlari va vositalari. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 5 Issue 2, 493-496-betlar.
7. Muxtasar Shavkatjonova Zebo Saidaliyeva. (2024). Deviant xulqli bolalarda ijtimoiy-pedagogik muammolar bartaraf etish yo'llari. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 5 Issue 3, 500-504-betlar.
8. [https://uzpedia.uz/pedia/ijtimoiy\\_meyorlar](https://uzpedia.uz/pedia/ijtimoiy_meyorlar)